




## 88. To'g'ri burchakli parallelepipedning yoyilmasi

Yondosh mavzu:  
qadoq.

To'g'ri burchakli  
parallelepiped, qirra,  
uch, yoyilma.




1. Simdan ushbu hajmli shakllar yasaldi. Har bir shaklda nechta uch, qirra va yoq bor?




2. To'g'ri burchakli parallelepipedning bo'yi 7 dm, eni 4 dm, balandligi esa 5 dm. Bu to'g'ri burchakli parallelepipedning nechta qirralari bor? Uning qirralari uzunliklari nimaga teng?



3. Bu shaklni katak daftarning bo'sh varag'iga ko'chirib chizing. Shaklni qirqib olib, kerakli tomonini bo'yang. Bu shakldan to'g'ri burchakli parallelepiped yasay olasizmi?




Yasalgan to'g'ri burchakli  
parallelepipedni oldingizga  
qo'ying. Uning bo'yalgan  
tomoni ko'rsating.




## 88. To'g'ri burchakli parallelepipedning yoyilmasi



4. Tadqiqot loyihasi: to'g'ri burchakli parallelepiped to'la sirti yuzini topish.





- a) To'g'ri burchakli parallelepipedning "yoyilgan" ko'rinishini ko'rib chiqing. Uning yoqlari nechta? Uning bir xil yoqlari nechta?



- b) Uning ko'k rangli yoqlari nechta? Bitta ko'k yog'ining yuzi nimaga teng? Barcha ko'k rangli yoqlari yuzlari yig'indisi nimaga teng?



- d) Uning qizil rangli yoqlari nechta? Bitta qizil yog'ining yuzi nimaga teng? Barcha qizil rangli yoqlari yuzlari yig'indisi nimaga teng?



- e) Uning yashil rangli yoqlari nechta? Bitta yashil yog'ining yuzi nimaga teng? Barcha yashil rangli yoqlari yuzlari yig'indisi nimaga teng?



- f) To'g'ri burchakli parallelepiped barcha yoqlari yuzlari yig'indisini toping.

## 88. To'g'ri burchakli parallelepipedning yoyilmasi



5. Istirohat bog'idagi yo'laklar bo'ylab 23 ta, sahna oldiga esa undan 3 marta ko'p o'rindiqlik o'rnatildi. Istirohat bog'ida hammasi bo'lib nechta o'rindiqlik o'rnatilgan?



6. Misollarni yeching. Darsning boshidagi rasmda ko'rsatilgan o'rindiqlar o'rnatilgan yumaloq maydoncha nima deb ataladi?

**A**  $2\ 893 + 4\ 579$

**O**  $5\ 690 + 1\ 082$

**E**  $52\ 000 - 48\ 839$

**R**  $8\ 795 - 1\ 927$

**I**  $20\ 475 : 9$

**T**  $28\ 856 : 8$

**M**  $38 \cdot 78$

**F**  $45 \cdot 62$

7 472	2 964	2 790	2 275	3 607	3 161	7 472	3 607	6 868
-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------



7. Istirohat bog'iga kirishda 20 ta chipta uchun 350 000 so'm to'lanishi kerak. Agar 37 ta chipta olinsa, qancha ko'p to'lash kerak bo'ladi?



8. To'rtta 4 raqamini yozing. Ular orasiga arifmetik amallar va qavslarni shunday qo'yingki, 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 sonlari hosil bo'lsin.



9. Amallar tartibiga rioya qilgan holda hisoblang.

$1\ 827 \cdot 4 : 9 + 3\ 612$

$28\ 930 - 6\ 000 : 150$

$800 : 16 + 20 \cdot (39 - 16)$

$2500 : 100 \cdot 14 + 4\ 310$



10. Jasurning to'g'ri to'rtburchak shaklidagi akvarium qopqog'i sinib qoldi. U shishadan boshqa qopqoq yasashga buyurtma berdi. Akvariumning bo'yi 42 cm, eni bo'yidan 17 cm qisqa, balandligi esa 35 cm. Bu akvarium qopqog'ining yuzi qanday bo'ladi?